

MAKTABGACHA YOSH DAVRIDAGI BOLALARNI MAKTABGA PSIXOLOGIK TAYYORLASH

**Andijon Davlat Pedagogika instituti
“Maktabgacha ta’lim” fakulteti
“Maktabgacha ta’lim pedagogikava psixologiyasi”
yo‘nalishi 101-guruh talabasi
Ergasheva O‘g‘iloy O‘ktamjon qizi**

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasini o‘rganilganlik holati va ularga kerakli tavsiyalar borasida fikr yuritiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi va ularning o‘rganilganlik sabablari o‘rganilib tahlil qilingan va bartaraf etish yo‘llari haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: shaxs, psixologiya, maktabgacha yosh, muhit, oila, mahalla, shaxslararo munosabat, motiv, tarbiya. Respublikamizda mustaqillik yillarida inson shaxsiga nisbatan bo‘lgan munosabat keskin o‘zgardi. Jamiyatning a’zosi bo‘lgan har bir shaxs taqdiriga alohida e’tibor qaratila boshlandi. Ayniqsa, inson hayotining kelajagiga tamal toshi qo‘yiladigan maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim-tarbiya berish, pedagogika va psixologiya, ijtimoiy psixologiya va maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi fanlarining dolzarb muammolaridan biriga aylanib borayotganligi shubhasizdir. Zotan, kelajagi buyuk davlatni bunyodga keltirish uchun har qanday davlatning fuqarosi dastlab oilada va so‘ngra maktabgacha ta’lim muassasida mukammal tarbiyalanishi, shaxs sifatida to‘laqonli shakllanishi imkoniyatlariga ega bo‘lishi lozim bo‘ladi. Qolaversa, kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan, uzluksiz ta’lim tizimi orqali, har tomonlama barkamol shaxs -fuqaroni shakllantirishni nazarda tutadi. Shu jihatdan qaraganda insonning shaxs sifatida shakllanishida uzluksiz ta’limning boshlang‘ich va joiz bo‘lsa, asosiy bo‘g‘inlaridan biri hisoblangan maktabgacha ta’lim muassasasi muhim o‘rin tutadi. Qolaversa, O‘zbekistonda ko‘plab yangi sohalar qatori aholiga psixologik maslahatlar berish hamda maktabgacha eshdagi bolalarni rivojlantirishga xizmat qiladigan tadqiqotlarga bo‘lgan muayyan ehtiyoj tobora ko‘proq sezilmoqda. Zero, bunday xizmatlarga ehtiyoj bir tomondan maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsini rivojlantirishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, shu maskanda tarbiyalanayotgan bolalarning ruhiy rivojlanishiga ota-onalar tomonidan ko‘rsatiladigan e’tiborning samarasini belgilaydi. Bolaning psixik jihatdan o‘shishiga o‘zlikni anglash, o‘zini-o‘zi baholash va o‘zaro munosabatlar xususiyatlari muhim hisoblanadi. Bu eng avvalo inson shaxsining psixologik asoslarini shakllantiruvchi, uning emotsional-hissiy, intellektual, ijtimoiy-psixologik rivojlanishiga zamin yaratuvchi ontogenezning dastlabki bosqichlariga taalluqlidir. Bunda oiladagi munosabatlar, xususan ota-ona va farzand o‘rtasidagi munosabatning mohiyati, o‘zaro shaxslararo muloqot katta rol o‘ynaydi. Oiladagi shaxslararo munosabatlar xarakteriga ko‘ra er-xotin o‘rtasidagi munosabatlar, ota-onalarning o‘z farzandlari bilan shaxslararo munosabatlariga bo‘linadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bizni maktabgacha yoshdagi bo‘lgan bolalarning psixologiyasidagi shunday jihat e’tiborimizni qaratdikki, ular aynan shu davrda o‘z qiziqishlari, yetakchi faoliyati bo‘lgan syujetli-rolli o‘yinlardagi harakatlari bilan birgalikda ijtimoiy dunyoning, avvalo, ota-ona oilasidagi rollarga va o‘zaro munosabatlarga e’tiborli bo‘lib, aynan ota-onalikka xos qiliqlarni o‘zlashtirishga kirishadilar. Bola bunda uning oldida ro‘y berayotgan voqea-hodisalarning kuzatuvchisi va ishtirokchisiga aylanib, bu jarayonlar qanchalik dinamik bo‘lsa, shunchalik faol va qiziquvchan bo‘ladi, ota-ona va bola o‘rtasidagi munosabatlarga nisbatan ko‘proq, to‘laroq va turli-tuman axborotlarni oladi, o‘zlashtiradi va fikrlaydi. Bunda "Oila" bola "men"ni shakllantiruvchi muhim sotsium-ijtimoiy muhitga aylanib, o‘zining ushbu muhitga aloqadorligini anglash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yerda shuni qayd etib o‘tish joizki, ijtimoiy psixologlarning fikricha, oiladagi shaxslararo munosabatlar tuzilmasida ota-ona -bola munosabatlari evolyutsion jihatdan nisbatan kechki va mazmunan aniqroq hisoblanadi, chunki ular shakllanib bo‘lgan er-xotin munosabatlari asnosidavujudga keladi. Biz shunga ishonch hosil qildikki, aynan nikoh juftligidagi er-xotin munosabatlari bolaning ijtimoiy tasavvurlarida

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

bilvosita ifodalangan ota-onalik munosabatlariga nisbatan moslashuvchan va dinamik bo‘lib, shu sababli bolaning ota-ona munosabatini aks ettirishi uning shaxsida ifodalangan o‘zgarishlarga zamin bo‘ladi. Masalan, onalar va otalarda ota-ona munosabatining umumiy ko‘rsatkichlari mos kelish darajasi 0 dan 5 gacha bo‘lgan bir paytda oilaviy qadriyatlar iyerarxiyasida umumiy ko‘rsatkichlarning mos kelmaslik darajasi 1 dan 11 gacha, ya’ni ota-ona munosabatlarining xuddi shunday ko‘rsatkichiga nisbatan 2 baravart katta bo‘ldi. Oiladagi ichkimunosabatlar va ota-onaning bolaga munosabati ta’siri ostida shakllanuvchi biriamchi o‘ziga munosabat, o‘zini identifikatsiyalashning barcha ko‘rinishlarida va kommunikativ faoliyat sub’yekti sifatida bolaning biriamchi kichik ijtimoiy guruh sifatida oilada o‘zini anglashi rivojlanishining hal qiluvchi omili hisoblanadi. Bunda nafaqat er-xotin-ota-ona o‘rtasidagi munosabatlar va ularning bolaga bo‘lgan munosabati, balki aynan shu munosabatlarning bevosita u bilan muloqotda aks ettirilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev maktabgacha ta’lim muassasalarimuammolariga bag‘ishlangan tadbirda: "Mutaxassis va pedagoglarning ilmiy xulosalariga ko‘ra, inson o‘z umri davomida oladigan barcha axborot va ma'lumotning 70 foizini 5 yoshgacha bo‘lgan davrda oladi. Ana shu dalilning o‘zi bolalarimizning yetuk va barkamol shaxs bo‘lib voyaga yetishida bog‘cha tarbiyasi qanchalik katta ahamiyatga ega ekanini yaqqol ko‘reatib turibdi. Bunga qo‘shimcha isbot qidirib uzoqqa borishning hojati yo‘q. Bog‘cha tarbiyasini olgan bola bilan bog‘chaga bormagan bolani solishtirganda, ularning fikrlash darajasi o‘rtasida yer bilan osmoncha farq borligini sezish qiyin emas" degan edi. Maktabgacha yoshdagi bola psixologiyasi ilmida bu yoshdagi bolalar sifati o‘zgarishlari tezlashganligini inobatga olgan holda bu davrni uch bosqichga taqsimlab o‘rganish maqsadga muvofiq deb topilgan: kichik maktabgacha davr (3-4 yosh); o‘rta maktabgacha davr (4-5 yosh); katta maktabgacha yosh (5-6 yoshgacha); maktabga tayyorlov yoshi (6-7 yoshgacha). Maktabgacha yoshdagi bola rivojlanish jarayonida ajdodlari tomonidan yaratilgan narsa va hodisalar, olam sir-sinoatlari bilan alohida maxsus munosabatga kirishadi. U insoniyat tomonidan qo‘lga kiritilgan yutuqlarni faol o‘zlashtirib, egallab boradi. Bolada narsa-hodisalar olami, ular yordamida amalga oshiriladigan xatti-harakatlar, ona tili va odamlar orasidagi munosabatlarni anglash, ayni zamonda faoliyat motivlarining rivojlanishi, qobiliyatlarning o‘zib borishi kattalarning bevosita yordami asosida amalga oshadi. Bu oilada ota-ona, maktabgacha ta’lim muassasalarida esa ta’liyachi ko‘magida yuz beradi. Asosan mana shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati kuchaya boshlaydi. Faoliyatdagi mustaqillik, o‘z-o‘zidan tafakkurdagi mustakillikka asos bo‘ladi. Bundan tashqari, maktabgacha yoshdagi bosqich ularda murakkab harakatlarni takomillashtirish, elementar gigiyena, madaniy va mehnat malakalarini hosil qilish, nutqini o‘stirish hamda ijtimoiy axloq va estetik didning dastlabki kurtaklarini yuzaga keltirish davri hamdir. Hozirgi zamon psixologiyasining erishgan natijalari shuni ko‘rsatdiki, bolaning tafakkurini ko‘rgazmali-harakatli, ko‘rgazmali-obrazli va so‘z-mantiqiy yo‘li bilan shakllantirish kerak. Bunda so‘z orqali bolalarni avvalo ko‘ra oladigan, seza oladigan buyumlar bilan tanishtirib, keyinchilik tasavvur shakllariga o‘tish mumkin. Metod va usul tanlashda ham yuqoridagilarga rioya qilish zarur. Shuning uchun ham ilk va bog‘cha yoshdagi sensor tarbiya aqliy tarbiyaning muhim omili hisoblanadi. Bolada nutq paydo bo‘lishidan ancha oldin, birinchi bor gapira boshlaganda u tevarak-atrofdagi odamlar va buyumlar dunyosini katta yoshdagi kishilar yordamida bilib oladi: Ona bolasiga o‘yinchoqni uzatganda, bola qo‘lini cho‘zib uni oladi. Uning ko‘rib, idrok qilishi eshitish bilan qo‘shiladi. Aynan o‘yinchoq nomi aytilganda, hissiy idrok bilan so‘z o‘rtasida o‘zaro ta’sir sodir bo‘ladi. Masalan ona “mushukchani ber”, “mushukchani olib kel” deb bir necha marta takrorlasa, bola muayyan o‘yinchoqning nomini yaxshi eslab qoladi. Pirovardida “mushukcha” degan so‘z bola xayolida ma’lum bir buyumni hosil qiladi. Mashhur rus fiziologi Ivan Sechenov bunday deb yozgan edi: “Bola gapirishning o‘rganib olgandan keyin unda tevarak-atrofdagi narsalarga qiziqish va ularni bilishga intilish oshib boradi, bu hol bolaning onasiga: nega stol yurmaydi-yu, quyosh esa oyoqsiz yuradi, kechqurun u qayerga yashirinadi, nima uchun shamol g‘uvullaydi?”- kabi savollar berishga sabab bo‘ladi”. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda nutqni rivojlantirish alohida rol o‘ynaydi. Inson o‘z fikrlarini ifodalash va boshqalarning fikrlarini tushunish uchun ona tilidan foydalanadi. Nutqni egallash bolaga hikoya, badiiy asar, so‘zlovchining tushuntirishlari orqali bilimlar hosil qilishga imkon beradi. Bolalar bog‘chasida lug‘at boyligini oshirish, so‘zning grammatik tuzilishini

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

shakllantirish, bog‘lanishli nutqni rivojlantirish vazifalari hal etiladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda ongli ravishda eslab qolish qobiliyati yaxshi shakllanadi, xotira hajmi kengayadi. Xayol, tafakkur qilish ijodiy faoliyat uchun zarurdir, shuning uchun uni bog‘cha yoshidan boshlab rivojlantirib borish katta ahamiyatga ega. Bog‘cha yoshining dastlabki bosqichlarida bolalarda tasavvur xayoli bo‘ladi. Hayotiy tajribaning ortib borishi va tafakkurning rivojlanishi bilan ijodiy xayol kengayadi. Kichik yoshidagi bola uchun ko‘rgazmali-harakatli, ko‘rgazmali-obrazli tafakkur xosdir. Buning asosida so‘z, mantiqiy va tushunchali tafakkur rivojlantiriladi. Bu esa hodisalarni, voqealarni chuqur anglab olish, ulardagi muhim va nomuhim bo‘lmagan tomonlarni ajratishga o‘rgatadi. Qiziquvchanlik bolaga xos xususiyatdir. U bolani tevarak –atrofdagi voqea va hodisalarga, narsa va buyumlarga qiziqish bilan qarashida, hamma narsani ushlab, paypaslab, yurgizib, harakatga keltirib ko‘rishida, qiziqtirgan narsasini diqqat bilan tomosha qilishi va kuzatishida namoyon bo‘ladi. Bolaning savollaridan undagi qiziquvchanlik qay darajada ekanligini aniqlab olsa bo‘ladi. Aqliy tarbiyaning vazifasi bolalar qiziquvchanligini, ular aqlining sinchkovligini rivojlantirish va shular asosida bilishga qiziqish hosil qilishdan iborat. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari oldida bolalarning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish vazifasi turibdi. Psixologiyada ma’lum bir faoliyatni muvaffaqiyatli egallab olish uchun shart-sharoitlar yaratadigan shaxsiy xususiyatlari qobiliyat jarayonida namoyon bo‘ladi va rivojlanadi. Insonning aqliy qobiliyati aqlning ziyraklik, fahm-farosatlilik, tanqidiy ko‘z bilan qarash, sinchkovlik, sermulohazalilik kabi sifatleri bilan ajralib turishi mumkin. Shunday qilib, tarbiyachi bolalarda aqliy sifatleri rivojlantiruvchi faoliyatlarni tashkil etib borishi kerak. Bolalarda ziyraklikni o‘stirish uchun tez javob qaytarishni talab etadigan o‘yinlarni tashkil etish lozim.

XULOSA

Shuni aytish mumkinki, oilaning zimmasiga ulkan va zarur ijtimoiy missiya yuklangandir. Bola tarbiyasi eng og‘ir ijtimoiy vazifa ekanligi ayondir. Ota va onaning shaxsiy va ijobiy namunasi solih va soliha farzandlarning kamolga yetishi uchun garovdir. Ostona hatlab tashqi dunyoga qadam qo‘yilganida esa bolaga atrof-muhit va jamoatchilikning ta’siri sezilarli bo‘ladi. Ta’lim muassasalari va mahalla-kuy, umuman, ijtimoiy sfera muhiti inson farzandini to hayotining so‘nggi daqiqasigacha ta’qib qilib boradi. Shu boisdan, oilaviy munosabatlarda shaxsning umummadaniy dunyoqarashini shakllantirishga erishish, nafaqat shaxsiy hayotda, balki, mamlakatimizda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar va ularning taraqqiyoti jamiyatning ruhiy va ma’naviy takomilida ham muhim o‘rin tutadi. Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://president.uz/uz-Узбекистон Республикаси Президентининг расмий веб-сайти>.
2. Урунтаева Г.А. Детская психология. -М.: «Академия», 2010. -С. 36.
3. Поддьяков Н.Н. Мышление дошкольника. -М.: «Педагогика», 1977. -С. 222.
4. Ғозиев Э. Тафаккур психологияси. -Т.: «Укитувчи», 1990.
5. Каримова В.М., Суннатова Р. Мустақил фикрлаш. -Т.: «Шарк», 2000.
6. Нишонова З.Т. Мустақил ижодий фикрлаш. -Т.: «Фан», 2004.
7. Тихомиров О.К. Психология мышления. -М.: МГУ, 1984.
8. Венгер Л.А., Венгер А.Л. Домашняя школа мышления (для пятилетних детей). -М.: «Знание», 1984.
9. Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте.